

TASDIQLAYMAN

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirining o'rinbosari
E. Edenbaev
«13» mart 2023 yil



**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi
vazirligida o'tkazilgan yig'ilish
B A Y A N N O M A S I
№ 6**

«13» mart 2023 yil.

Nukus shahri

Raislik qiluvchi

Ishtirokchilar

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirining o'rinbosari
-Vazirlikning bo'lim boshlig'lari
va mutaxassislari;
-tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi
boshliqlari va mutaxassislari;

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalariri va energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” PQ-57-sonli qarorini targ'ib qilish to'g'risida.

(Edenbaev, Qurbaniyazov, Otepov, Genjebaev, Edenbaev)

Kun tartibidagi masala bo'yicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining o'rinbosari E.Edenbaev, “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-57-sonli Prezident qarori mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida tushintirishlar berdi.

Vazirlikning Bosh yuriskonsulti K.Otepov Qarorning maqsadi ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilishdan iboratligini. 2023-yilda umumiy 4 300 MVt qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishga tushirilishini shundan:

- 2 100 MVt – quyosh va shamol elektr stansiyalari;
- 1 200 MVt – bino va inshootlar va xonadonlarda o'rnatiladigan quyosh panellari;

550 MVt – tadbirkorlar quradigan kichik fotoelektr stansiyalari qurilishi to'g'risida ma'lumot berdi.

Vazirlikning kasaba uyushmasi raisi M. Kurbaniyazov chiqib 2023-yil 1-apreldan respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatli (umumiy quvvati 50 kVt gacha) quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturi amalga oshirilishi.

Dastur doirasida quyosh panellari orqali olingan aholi ehtiyojidan ortiq elektrning har bir kv/sga 1 000 so'mdan subsidiya berilashini, subsidiya daromad solig'iga tortilmasligini, subsidiya har oyda "Soliq" mobil ilovasi orqali plastik kartaga o'tkazilishini, qurilmalar bo'yicha mol-mulk solig'i, qurilmalar bilan band uchastka bo'yicha yer solig'i, yuridik shaxslar ishlab chiqarib sotgan elektr uchun foyda soliqlari solinmasligini va boshqada qaror tolablaridan kelib chiqqan vazifa hamda tpchiriklar to'g'risida tushintirdi.

Yig'ilish boshqaruvchisi kun tartibida kurilayotgan masala bo'yicha sungi yako'nlovchi so'zga chiqib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalariri va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-57-sonli qarorini talablaridan kelib chiqib qabul qilinadigan echimlar to'g'risida taklifini bildirdi.

Yuqoridagi fikir va takliflarni inobatga olib yig'ilish:

QAROR QILDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalariri va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-57-sonli qarori ijrosi bo'yicha vazirlik va tuman bo'limlarining o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlik va Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi xodimlariga ushbu qaror mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirishda targ'ibot tadbirlarida televidenie, radio va ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan foydalanilsin.

3. Yig'ilish qarorining ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayonlashtirgan:



E. Kurbaniyazov